

Talipova Malikaxon Xusan qizi

mlktalipova@gmail.com

+998946402411

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri tahlil qilingan bo‘lib, bunda tibbiy turizmning rivojlanishi orqali mamlakatga kiruvchi xorijiy bemorlar sonining ortishi iqtisodiyotdagi asosiy o‘sish omillaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan. Tibbiy xizmatlar sohasidagi investitsiyalar o‘sishi, ish o‘rinlarining yaratilishi va xizmatlar ko‘lamining kengayishi, sog‘liqni saqlash tizimi sifatining oshishi, turizm va transport sohalarining rivojlanishi hamda mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ijobiy ijobiy ta’sirlari ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida mamlakat turizm xizmatlari eksporti hajmiga ta’sir qiluvchi omillar korrelyatsion-regression usullar yordamida o‘rganilib eksport qilinayotgan turizm xizmatlari qiymatiga ta’siri tahlil qilindi

Kalit so‘zlar: Tibbiy turizm, tibbiy sayyoh, tibbiy turizm bozori, davolanish, turizm infratuzilmasi, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, tibbiy xizmatlar, xarajatlar.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние медицинского туризма на экономику страны, где увеличение количества иностранных пациентов, въезжающих в страну за счет развития медицинского туризма, рассматривается как один из основных факторов роста экономики. Также были рассмотрены рост инвестиций в сферу медицинских услуг, создание рабочих мест и расширение сферы услуг, повышение качества системы здравоохранения, развитие туристической и транспортной отраслей, положительное влияние на валовой внутренний продукт страны. В ходе исследования с помощью корреляционно-регрессионных методов изучены факторы, влияющие на объем экспорта туристических услуг страны, а также проанализировано влияние на стоимость экспортируемых туристических услуг.

Ключевые слова: Медицинский туризм, медицинский туризм, рынок медицинского туризма, лечение, инфраструктура туризма, инфраструктура здравоохранения, медицинские услуги, затраты.

Abstract. This article analyzes the impact of medical tourism on the country's economy, where the increase in the number of foreign patients entering the country through the development of medical tourism is considered as one of the main growth factors in the economy. The growth of investments in the field of medical services, the creation of jobs and the expansion of the scope of services, the increase in the quality of the health care system, the development of tourism and transport sectors, and the positive effects on the country's gross domestic product were also considered. In the course of the study, factors affecting the volume of export of tourism services of the

country were studied using correlation-regression methods, and the impact on the value of exported tourism services was analyzed.


Key words: *Medical tourism, medical tourist, medical tourism market, treatment, tourism infrastructure, healthcare infrastructure, medical services, costs.*

Tibbiy turizm mamlakat iqtisodiyotiga ko‘p tomonlama va sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi navbatda, tibbiy turizm chet ellik sayyohlarni jalb qilish orqali mamlakatga qo‘shimcha daromad manbai keltiradi. Bu daromadlar esa sog‘liqni saqlash xizmatlari, mehmonxona, transport, ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalariga ham ta’sir qiladi, natijada mamlakat YaIM hajmi oshadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tibbiy turizm sog‘liqni saqlash infratuzilmasining rivojlanishiga turtki beradi. Mamlakatlar yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni taklif qilish uchun malakali kadrlar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishga intiladi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimining umumiy sifatini oshirishga yordam beradi. Buning natijasida mahalliy aholining ham tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, tibbiy turizm yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Klinikalar, sanatoriyalar, turizm agentliklari va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Bu esa mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirishga va aholining daromad darajasini oshirishga yordam beradi.

Tibbiy turizm nafaqat bemorlarning, balki hududning ijtimoiy, iqtisodiy farovonligiga ham ta’sir o‘tkazuvchi omillardan biridir. Tibbiy turizmning rivoji yuqori qiymatli ish o‘rinlari tashkil etishga va sifatli tibbiy infratuzilmaning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni, malakali shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari jamoasiga ega zamonaviy shifoxona farmatsevtika va jarrohlik asbob-uskunalarini ishlab chiqarishga ham turtki beradi. Bundan tashqari, davolanish maqsadida boshqa mamlakatdan kelgan sayyohlar tibbiy bo‘lmagan xizmatlar – yashash, ovqatlanish, xaridlar, transport xizmatlari va ziyorat turizmiga ham o‘z hissalarini qo‘shadilar. Sifatli tibbiyot xizmatlarini ta’minlaydigan mamlakat tibbiy innovatsiyalarga va taraqqiyotning birinchi qatorda bo‘lishiga e’tibor qaratadi. Bu esa o‘z fuqarolariga arzon va sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu bog‘liqlikni quyidagi rasm orqali ko‘rishimiz mumkin.


30-Oktyabr, 2025-yil



1-rasm. Tibbiy turizmning iqtisodiy ahamiyati¹¹

Bu bilan birga, aholining sog'liqni saqlash bo'yicha xabardorligi oshgani sayin turli profilaktik tibbiy xizmatlarga ehtiyoj tug'ila boshlaydi. Bu esa mamlakat sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Bundan tashqari tibbiy turizmni rivojlantirishga turtki bo'luvchi bir nechta asosiy omillar mavjud bo'lib ular quyidagicha tavsiflanadi¹²:



2-rasm. Tibbiy turizmni rivojlantiruvchi omillar (2024-yil), %da¹³

Xarajatlarni tejash – tibbiy turizmning asosiy omili xarajatlarni tejash bo'lib, muolajalar ko'pincha bemorning mamlakatiga qaraganda 60% arzonroqdir.

Xizmat sifati – tibbiy sayyohlarning 50%i yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan tibbiy turizm yo'nalishlarini tanlaydi.

Sug'urta qoplamasining yo'qligi – tibbiy sayyohlarning 25%i chet elda davolanishga intiladilar, chunki, ularning sug'urta rejalari ma'lum muolajalarni qamrab olmaydi.

¹¹ Samandarov O.A. Turizm bozorida tibbiy turizmning tutgan o'rni va O'zbekistonda sohani rivojlantirish uchun xorij tajribalarini qo'llash. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7029211>

¹² Patients Beyond Borders, Deloitte, McKinsey & Company, Journal of Travel Medicine, Global Wellness Institute, Medical Tourism Association, Medical Tourism Magazine, International Journal of Environmental Research and Public Health, Deloitte

¹³ Global Medical Tourism Market Key Statistics // <https://media.market.us/medical-tourism-statistics/>

30-Oktyabr, 2025-yil

Kutish vaqti qisqaroqligi – tibbiy sayyohlarning o‘z davlatlaridagi uzoq kutish navbatlari ularning 20%ini chet elda tezroq davolanish usullarini izlashga undaydi.

Ilg‘or texnologiyalar – tibbiy sayyohlarning 30%i ilg‘or tibbiy texnologiyalar va yuqori darajadagi davolash usullaridan foydalanish uchun sayohat qiladi.

Maxfiylik va konfidensiallik – tibbiy sayyohlarning 15% chet eldagi sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan taqdim etiladigan maxfiylik va konfidensiallikni birinchi o‘ringa qo‘yadi.


Mahalliy ekspertiza yetishmasligi – tibbiy sayyohlar uchun zarur bo‘lgan maxsus tibbiy bilimlar mahalliy darajada mavjud emasligi sababli ularning 20% ga yaqini boshqa mamlakatlarga sayohat qiladi.

Yaxlit va muqobil terapiya – tibbiy sayyohlarning 10% ga yaqini ma’lum tibbiy turizm yo‘nalishlarida mavjud bo‘lgan muqobil terapiya va yaxlit davolash usullarini izlaydi.

Davolashni ta’til bilan birlashtirish – tibbiy sayyohlarning 40%i tibbiy turizmni davolanishni dam olish bilan birlashtirish imkoniyati sifatida ko‘rishadi.

Yo‘nalishlar va tavsiyalar – do‘stlar, oila va tibbiyot mutaxassislarining tavsiyalari taxminan 25% bemorlarning tibbiy turizm bo‘yicha qaroriga ta’sir qiladi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari bo‘yicha tibbiy sayyohlar orasida eng ommabop tibbiy xizmatlar qatoriga kosmetik jarrohlik (tibbiy turizmning 25%i), stomatologiya (15%), ortopedik jarrohlik (12%), kardiojarrohlik va organ transplantatsiyasi (10%), reproduktiv salomatlik bilan bog‘liq muolajalar (12%) kiradi. Shu bilan birga, oftalmologik muolajalar (10%), saraton kasalligini davolash (8%), bariatrik jarrohlik (7%) hamda nevrologik muolajalarga (6%) ham talab tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda. Bundan tashqari, Osiyo mamlakatlarida mavjud bo‘lgan an’anaviy va muqobil davolash usullari ham sezilarli darajada ommalashmoqda (5-rasm).



3-rasm. Turli davolash muolajalarining tibbiy turizm segmentidagi ulushi, %da¹⁴

O‘zbekistonda ham tibbiy turizm yo‘nalishi iqtisodiyotning yangi va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish masalasi ilk bor

¹⁴ Medical Tourism Association, Patients Beyond Borders, McKinsey & Company, International Medical Travel Journal, World Health Organization, Medical Tourism Magazine)


30-Oktyabr, 2025-yil

2015-yilda muhokama etilgan bo‘lib, o‘shanda tibbiyot muassasalariga tashrif buyurish maqsadida mamlakatimizga kelgan xorijlik fuqarolar soni 12 ming nafarga yetgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 61,3 ming kishini tashkil etgan.



4-rasm. 2015-2023 yillarda tibbiy maqsadlarda O‘zbekistonga kiruvchi turistlar oqimining dinamikasi, ming kishi¹⁵

Xususan, mamlakatimiz hududiga tashrif buyuruvchi tibbiy sayyohlar soni bo‘yicha besh davlat: Tojikiston (43,2 ming kishi), Qozog‘iston (10,7 ming kishi), Qirg‘iziston (5,5 ming kishi), Rossiya (1,1 ming kishi) va Turkmaniston (0,5 ming kishi) yetakchi bo‘ldi.



5-rasm. O‘zbekistonga 2023-yilda MDH mamlakatlaridan tashrif buyurgan tibbiy sayyohlar soni, ming kishi¹⁶

Aytish joizki, bu yo‘nalish xorij fuqarolari orasida hali yetarlicha mashhur emas. Kiruvchi tibbiy turizm ko‘rsatkichlarining rivojlanish tendensiyalariga qaramay, biz tibbiy turizm bozorida ham hajm, ham sohaning jozibadorligi bo‘yicha hali ham orqadamiz. Bu bozorning 0,1 foiz ulushi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Milliy ekspertlarning fikricha, faqat tibbiy turizm xizmatlari eksporti mamlakatimizga yiliga 300 million AQSh dollari daromad keltirishi mumkin. Ushbu segmentning o‘shishini

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi. // <https://www.stat.uz/uz/>

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi. // <https://www.stat.uz/uz/>

30-Oktyabr, 2025-yil

to‘xtatib turuvchi asosiy omillardan biri tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmini har tomonlama rivojlantirishga yaxlit yondashuvning yo‘qligi hisoblanadi. Oxirgi 5 yil ichida xususiy klinikalar soni ko‘paydi, ammo ularning faqat ma‘lum bir qismi xalqaro sertifikatga ega.¹⁷

Hozirgi kunda Respublikamizda tibbiy turizm sohasiga alohida strategik ahamiyat berilib, uni rivojlantirish borasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Davolash-profilaktika muassasalari taklifiga ko‘ra davolanish maqsadida keladigan xorijlik fuqarolar uchun 3 oygacha muddatga beriladigan “Medical Visa” (“Tibbiy kirish vizasi”) joriy etilgan.

Mamlakat Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5590-qaroriga¹⁸ muvofiq Vazirlar Mahkamasi “2019-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot turizmini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi loyihasini ishlab chiqdi.¹⁹ O‘zbekistonda turizm va tibbiyot sohalarida o‘tkazilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, bu borada chet ellik fuqarolarning mamlakatimizga kirib kelishini ko‘paytirish maqsadida “Medtravel Global System” nodavlat notijorat tashkiloti tashkil qilindi.

2020-yil 27-mayda O‘zbekiston Respublikasi “Tibbiy turizm Assosatsiyasi” tashkil etilgan bo‘lib uning maqsadi tibbiy turizmni rivojlantirishga ko‘maklashish, uning a‘zolarining huquq va qonuniy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, barcha ishtirokchilarning birlashgan o‘zaro hamkorligi uchun sharoit yaratishdan iborat. Yurtimizda Assotsiatsiya tomonidan tibbiyot sohasidagi yetakchi davlatlar bilan birgalikda ma‘lum bir kasalliklarni davolash, tashxis qo‘yish, dam olishni tashkil etish maqsadida turli xil konferensiya va uchrashuvlar tashkillashtirilmoqda va shartnomalar imzolanoqda. Respublikamizda dunyoning rivojlangan Kanada, Turkiya, Isroil, Singapur, Hindiston davlatlari bilan onkologik kasalliklarning oldini olish va davolash borasida tajriba almashinib investorlar O‘zbekistonga jalb qilinmoqda. Ana shunday dasturlarning qabul qilinishi O‘zbekistonda tibbiy turizmning rivojlanishiga va sayyohlarni jalb qilish imkonini beradi.

Xorij tajribasiga nazar solsak, 2024-yilda Tibbiy turizm reytingida yetakchi o‘rinlarni olgan mamlakatlarning tibbiy turizm industriyasining ancha rivojlanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

¹⁷ Голышева Е.В., Мамметова Б.И. Медицинский туризм: главные тенденции и перспективы роста. Special issue of international scientific journal science and innovation. November 2024 | issn: 2181-3337 | scientists.uz

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2018 yildagi PF-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

¹⁹ O‘zbekistonda tibbiyot turizmini rivojlantirishga start berildi // <https://review.uz/uz/post/v-uzbekistane-dan-start-razvitiyu-meditsinskogo-turizma>

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

Tailand	•tibbiy turizm reytingida 79,53 ball bilan 1-o‘rinni egallagan •tibbiy turizm bozor ulushi 22% •2 milliondan ortiq tibbiy sayyohlar tashrif buyuradi •100 ta kasalxona va klinikalar Xalqaro Qo'shma Komissiya (JCI) tomonidan akkreditatsiya qilingan •tibbiy turizmning qiymati qariyb 9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.
Hindiston	•tibbiy turizm reytingida 72,47 ball bilan 2-o‘rinni egallagan •tibbiy turizm bozor ulushi 2024-yilda 20% •har yili 500 000 ga yaqin tibbiy sayyohlar tashrif buyuradi •38 ta kasalxona va klinikalar Xalqaro Qo'shma Komissiya (JCI) tomonidan akkreditatsiya qilingan •tibbiy turizmning qiymati qariyb 9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.
Meksika	•tibbiy turizm reytingida 70,05 ball bilan 3-o‘rinni egallagan •tibbiy turizm bozor ulushi 18 % •1 millionga yaqin tibbiy sayyoh tashrif buyuradi •Xalqaro Qo'shma Komissiya (JCI) tomonidan akkreditatsiya qilingan 100 dan ortiq shifoxona va klinikalar mavjud •tibbiy turizmning qiymati qariyb 4 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

6-rasm. Tibbiy turizm reytingida 2024-yilda yetakchilik qilgan mamlakatlar²⁰

Yuqorida sanab o‘tilgan yetakchi mamlakatlarning har biri tibbiy turizm sohasini rivojlantirishda o‘zlarining milliy strategiyalari bo‘yicha ish yuritib ushbu sohani rivojlantirmoqda. Masalan, Tailand hukumat siyosati mamlakatni “Tibbiyot va sog‘lomlashtirish” manzili va jahon miqyosidagi tibbiy markaz bo‘lishiga qaratilgan. Hindiston turli shifoxonalarda tibbiy sayyohlar uchun 20 000 dan ortiq ro‘yxatdan o‘tgan yotoqlarni taklif etadi, bu esa sifatli tibbiy yordamni ta‘minlaydi. Meksika hukumati xalqaro bemorlarga kirish qulayligini oshirib, tibbiy viza jarayonini soddalashtirish choralarini ko‘rdi. Yurtimizda ham tibbiy turizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar mavjud bo‘lib xorij tajribasini qo‘llash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ana shunday sharoitlarning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

Tibbiy turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari

Zamonaviy tibbiyot infratuzilmasi	Innovatsion texnologiyalar (Raqamli iqtisodiyot)	Ta‘lim va malaka oshirish	Marketing va brendni rivojlantirish	Xalqaro hamkorlik	Sog‘liqni saqlash siyosati
-----------------------------------	--	---------------------------	-------------------------------------	-------------------	----------------------------

7-rasm. Tibbiy turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari²¹

²⁰ Global Healthcare Accreditation for Medical Travel // <https://www.globalhealthcareaccreditation.com/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

1. Zamonaviy tibbiyot infratuzilmasi

- Tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish: Yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud klinikalarni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash.

- Sanatoriyalar va SPA markazlarini rivojlantirish: Yurtimizda mavjud bo'lgan tabiiy resurslardan (mineral suvlar, kurortlar) foydalanish orqali sog'liqni saqlash xizmatlarini taklif etish.

2. Innovatsion texnologiyalar (Raqamli iqtisodiyot)

- Telemeditsina: Masofadan tibbiy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini rivojlantirish, bu esa chet ellik bemorlar uchun qulaylik yaratadi.

- Sun'iy intellekt va big data: Tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish va bemorlar uchun shaxsiylashtirilgan davolash rejalarini ishlab chiqish.

3. Ta'lim va malaka oshirish

- Tibbiyot xodimlarini tayyorlash: Xalqaro standartlarga mos keladigan malaka oshirish kurslari va dasturlarini tashkil etish.

- O'qituvchilar va mutaxassislar bilan hamkorlik: Chet eldagi tibbiyot ta'lim maskanlari bilan hamkorlik qilish.

4. Marketing va brendni rivojlantirish

- Xalqaro marketing strategiyalari: Tibbiy turizmni targ'ib qilish uchun xalqaro ko'rgazmalar va konferensiyalarda ishtirok etish.

- Brendni yaratish: O'zbekistonni tibbiy turizm markazi sifatida tanitish uchun o'ziga xos brendni yaratish.

5. Xalqaro hamkorlik

- Chet el muassasalari bilan hamkorlik: Tibbiy xizmatlar ko'rsatishda xalqaro standartlarni joriy etish va boshqa davlatlar bilan o'zaro tajriba almashish.

- Tibbiy turizm sohasida investitsiyalar: Chet el investorlarini jalb qilish va tibbiyot sohasidagi innovatsion loyihalarga sarmoya kiritish.

6. Sog'liqni saqlash siyosati

- Davlat dasturlari: Tibbiy turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

- Sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash: Tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va bemorlar uchun qulay sharoitlar yaratish.

Ushbu strategiyalarni qo'llash kelajakda mamlakatlar uchun, xususan, O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishga, nafaqat iqtisodiy jihatdan yaxshilashga, balki xalqimizning, shuningdek tibbiy xizmatlar olish maqsadida mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi hamda yurtimizni jahon miqyosida tibbiy turizm maskanlaridan biriga aylantirishga yordam beradi va kelajakda ushbu sohaning o'sishini ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-335-sonli

²¹ Talipova M.X. O'zbekiston tibbiy turizmni innovatsion rivojlantirish istiqbollari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 8, Issue 05, May (2025)

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

qarorning 4-ilovasi bilan 2024-2027-yillarda tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha tasdiqlangan bo‘lib uni quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin.

1-jadval

2024-2027-yillarda tibbiy turizmni yanada rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar²²

Ko‘rsatkichlar	2024 -yil	20 25-yil	20 26-yil	20 27-yil
Davolanish maqsadida tashrif buyuruvchilar (nafar)	120 000	230 000	350 000	480 000
Tibbiy turim eksporti soni (mln. AQSh dollarida)	130,9	220,5	360,4	495,0

Ushbu jadvalga ko‘ra, 2025-yilda 230 ming va 2027-yilda esa 480 ming nafar tashrif buyuruvchini davolanish maqsadida jalb qilish evaziga, mos ravishda 2025-yilda 220 mln AQSh dollari tibbiyot turizm eksporti va 2027-yilga borib bu ko‘rsatkichni 495,0 mln AQSh dollari miqdoriga yetkazish maqsad qilingan. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qarorda belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini yuqori saviyada bajarib, ko‘zlangan natijaga, ya’ni 2027-yilga borib deyarli yarim mln xorijiy sayyohlar tibbiyot turizmi yo‘nalishida jalb etils, albatta iqtisodiyotimizga katta foyda keladi. Ushbu turizm oqimidan keladigan turizm eksportiga nazar tashlansa, har bir tibbiy turizm eksporti boshqa turizm turlaridan keladigan foydadan ancha yuqoriligi ko‘rinadi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan tibbiy turizmni yanada rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarini tahlil qilgan holda O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari eksporti hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganib eksport qilinayotgan turizm xizmatlari qiymatiga (o‘zbek so‘mida, milliard so‘m miqyosida) ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar aniqlandi va tahlil qilindi. Tadqiqotda miqdoriy yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, statistik tahlil orqali bog‘lanishlar o‘rganiladi, ya’ni, bog‘lanayotgan o‘zgaruvchi (turizm xizmatlari eksporti) hamda bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi.

Quyidagi omillar ta’sir qiluvchi o‘zgaruvchilar sifatida ko‘rib chiqiladi:

Y – Turizm xizmatlari eksporti (milliard so‘m): Bu bog‘lanayotgan o‘zgaruvchi bo‘lib, O‘zbekistondan eksport qilinayotgan umumiy turizm xizmatlari qiymatini ifodalaydi.

x1 – Tibbiy maqsadlarda O‘zbekistonga kirib kelgan turistlar soni (ming nafar): Ushbu o‘zgaruvchi O‘zbekistonda aynan tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida kelgan xorijiy turistlar oqimini aks ettiradi.

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida davolash-sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

x2 – Turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni (ming nafar): Ushbu o‘zgaruvchi O‘zbekistonga sayohat va hordiq chiqarish maqsadida tashrif buyurgan xalqaro turistlar sonini ifodalaydi.

x3 – Turistik maqsadlarda chet davlatlarga chiqqan O‘zbekiston fuqarolari soni (ming nafar): Bu o‘zgaruvchi chiqish turizmini ifodalaydi, ya’ni boshqa mamlakatlarga sayohat qilgan O‘zbekiston fuqarolari sonini ko‘rsatadi.

x4 – Faoliyat yuritayotgan turizm tashkilotlari va firmalar soni (birlik): Ushbu o‘zgaruvchi turizm sohasining taklif qismini ifodalaydi, ya’ni mavjud infratuzilma va xizmat ko‘rsatish salohiyatini aks ettiradi.

Ushbu tadqiqotda ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun vaqt qatori (time-series) ma’lumotlaridan foydalaniladi. Har bir mustaqil o‘zgaruvchining turizm xizmatlari eksport hajmiga ta’siri darajasi va ahamiyatini aniqlash maqsadida statistik usullar, xususan, korrelyatsion-regression tahlilidan foydalanildi. Tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki, O‘zbekistondagi iqtisodchilar va turizm sohasi vakillari uchun foydali ma’lumotlar taqdim etishi kutilmoqda. Bu ma’lumotlar turizm xizmatlari eksportini oshirish va barqaror turizm rivojlanishini ta’minlash strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

pwcorr Y x1 x2 x3 x4

	Y	x1	x2	x3	x4
Y	1.0000				
x1	0.8640	1.0000			
x2	0.8205	0.8994	1.0000		
x3	0.3027	0.6123	0.7672	1.0000	
x4	0.5111	0.4489	0.7277	0.6598	1.0000

8-rasm. O‘zbekiston Respublikasi turizm xizmatlar eksporti hajmiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil²³

Korrelyatsion matritsa turizm xizmatlari eksporti (Y) bilan turli izohlovchi o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. Eng yuqori korrelyatsiya Y va tibbiy maqsadlarda tashrif buyurgan sayyohlar soni (x1) o‘rtasida kuzatilib, koeffitsiyenti 0.8640 ni tashkil etadi, bu esa kuchli ijobiy chiziqli bog‘liqlikni bildiradi. Xuddi shuningdek, umumiy turistik maqsadlarda tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni (x2) ham eksport bilan yuqori darajada bog‘liq (0.8205). Bu esa, mamlakatga kiruvchi turizmning oshishi turizm xizmatlari eksportini sezilarli darajada oshirishini anglatadi.

Turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi faol tashkilotlar soni (x4) bilan eksport o‘rtasidagi korrelyatsiya o‘rtacha darajada (0.5111) bo‘lib, u eksportga muayyan darajada hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi. Biroq, O‘zbekistondan chiqayotgan (chiqish) turistlar soni (x3) bilan bog‘liqlik eng past (0.3027) koeffitsiyentga ega bo‘lib, bu eksportga nisbatan kamroq yoki hatto bilvosita ta’sirini bildiradi.

²³ STATA dasturi yordamida muallif tomonidan hisoblandi.

Bundan tashqari, matritsada izohlovchi o‘zgaruvchilar o‘rtasida yuqori darajadagi o‘zaro bog‘liqliklar mavjudligi ko‘rsatilgan, xususan x1 va x2 (0.8994) hamda x2 va x3 (0.7672) o‘rtasida. Bu holat multikolinearlik xavfini yuzaga keltiradi, ya’ni bu o‘zgaruvchilar birgalikda regressiya modeliga kiritilganda, koeffitsiyentlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. X1, x2 va x3 o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik turizm harakatlarining bir-biriga bog‘liq tarzda o‘sib borishini bildiradi. Shuning uchun bu o‘zaro bog‘liqlik keyingi ekonometrik modellashtirish jarayonida ehtiyotkorlik bilan hisobga olinishi zarur, natijalarni ishonchli va xolis qilish maqsadida.

reg Y x1 x2 x3 x4						
Source	SS	df	MS	Number of obs = 8		
Model	453367021	4	113341755	F(4, 3)	=	25.96
Residual	13099685.6	3	4366561.86	Prob > F	=	0.0116
				R-squared	=	0.9719
				Adj R-squared	=	0.9345
Total	466466706	7	66638100.9	Root MSE	=	2089.6
Y	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
x1	264.407	129.2105	2.05	0.133	-146.7985	675.6124
x2	2.347201	1.578621	1.49	0.234	-2.676676	7.371078
x3	-2.427127	.5177696	-4.69	0.018	-4.074901	-.7793531
x4	19.87709	15.29665	1.30	0.285	-28.80367	68.55784
_cons	-7802.84	5863.091	-1.33	0.275	-26461.81	10856.13

9-rasm. O‘zbekiston Respublikasi turizm xizmatlar eksporti hajmiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil²⁴

Regressiya natijalari to‘rtta mustaqil o‘zgaruvchining turizm xizmatlari eksportiga (Y) qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Umumiy model statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, F-statistika qiymati 25.96 va p-qiymati 0.0116 ga teng. Bu model yaxshi mos kelishini ko‘rsatadi. R-kvadrat qiymati 0.9719 va moslashtirilgan R-kvadrat 0.9345 bo‘lib, bu eksportdagi o‘zgarishlarning 93% dan ortig‘i to‘rtta izohlovchi o‘zgaruvchi orqali tushuntirilishini bildiradi. Bu esa juda kuchli izohlaydigan salohiyatni aks ettiradi. Biroq, namunaviy tanlov kichik bo‘lgani (n = 8) sababli, umumlashtirish imkoniyati cheklangan bo‘lishi va koeffitsiyent baholarining standart xatolari katta bo‘lishi mumkin.

Har bir o‘zgaruvchining alohida ta’sirini tahlil qilar ekanmiz, ularning hech biri 5% darajada statistik ahamiyatli emasligi ko‘rinadi, chunki barcha p-qiymatlar 0.05 dan yuqori. Xususan, x1 (tibbiy turistlar) uchun koeffitsiyent 264.4 bo‘lib, ijobiy ta’sirni bildiradi, ammo statistik jihatdan ahamiyatsiz (p = 0.133). X2 (umumiy kiruvchi turistlar) ham kichik ijobiy ta’sirga ega (2.35), biroq u ham ahamiyatsiz (p = 0.234). X3 (chiqayotgan O‘zbekiston fuqarolari) esa manfiy va nisbatan ahamiyatliroq ta’sir ko‘rsatadi (-2.43, p = 0.021), bu esa chet elga chiqayotgan

²⁴ STATA dasturi yordamida muallif tomonidan hisoblandi.

fuqarolar sonining ortishi turizm eksportini kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. X_4 (turizm firmalari soni) esa ijobiy, lekin statistik jihatdan zaif ta’sirga ega (19.88, $p = 0.285$). Keng ishonch oralig‘i (confidence intervals) ko‘rsatkichlarning noaniqligini yanada oshirib, bu holat multikollinearlik va ma’lumotlar sonining kamligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Berilgan regression jadvalidan faqat Y (Turizm xizmatlar eksporti) va x_3 (xorijga chiqayotgan O‘zbekiston fuqarolari soni) omillari ajratib olinadi. U holda chiziqli iqtisodiy model quyidagicha yoziladi:

$$Y = -7802.84 - 2.4271 * x_3 + E$$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, x_3 o‘zgaruvchisi (xorijga chiqayotgan fuqarolar soni) bilan Y (turizm eksporti) o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjud. Ya’ni, agar xorijga chiqayotgan O‘zbekiston fuqarolari soni 1 ming nafarga ohsa, turizm xizmatlari eksporti o‘rtacha 2.43 mlrd so‘mga kamayadi. Bu mantiqan izohlanadi, chunki fuqarolarning chet elga chiqishi ichki turizmga va eksport salohiyatiga salbiy ta’sir qiladi – pul oqimi tashqariga yo‘naltiriladi.

Tavsiyalar:

Ichki turizmni rag‘batlantirish: O‘zbekiston fuqarolarini mamlakat ichidagi dam olish maskanlari va sog‘lomlashtirish zonalariga jalb qilish eksport o‘rnini qisman to‘ldiradi va resurslarning ichki iqtisodiyotda qolishini ta’minlaydi.

Valyuta oqimini ushlab qolish: Xorijga chiqishni qisqartirish maqsadida turizm xizmatlarining sifati va arzonligini oshirish orqali fuqarolarni ichki xizmatlardan foydalanishga jalb etish mumkin.

Marketing va subsidiya dasturlari: Ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirish uchun reklama, chegirmalar va hukumat qo‘llovlarini kuchaytirish kerak.

Yuqoridagi ma’lumotlarni umumlashtirgan holda, tibbiy turizm har qanday mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasiga xizmat qiladi va uning eksport salohiyatini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mamlakatning jahon miqyosidagi obro‘sini oshirishga ko‘maklashadi. Kelgusida tibbiy turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xizmatlar sifat standartlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Munozaralar sharhi. Tibbiy turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri haqidagi tadqiqot natijalari sohaning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga ko‘rsatadigan muhim ta’sirini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida tibbiy turizm faqatgina istiqbolli yo‘nalish bo‘lmasdan iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash hamda aholi turmush darajasini oshirishning kuchli vositasi ekanligi tahlil qilindi. U butun dunyodagi odamlar uchun ilg‘or sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi, madaniy almashinuvni rag‘batlantiradi va milliy sog‘liqni saqlash tizimlarining barqarorligini mustahkamlaydi.

Tibbiy turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri ko‘p qirrali va sezilarli darajada bo‘lib, ularning asosiy ijobiy ta’sirlarini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

1. Valyuta tushumi. Tibbiy turizm xorijlik bemorlar va ularning yaqinlaridan keladigan katta miqdordagi valyuta tushumini ta'minlaydi. Bu mamlakatning valyuta zaxiralarini oshirishga yordam beradi.

2. Ish o'rinlari yaratish. Tibbiy turizm sohasining rivojlanishi tibbiyot xodimlari, mehmonxona xodimlari, transport, oziq-ovqat va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratadi.

3. Sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish. Tibbiy turizm uchun zamonaviy klinikalar, diagnostika markazlari va boshqa sog'liqni saqlash obyektlari quriladi yoki yangilanadi. Bu nafaqat turistlar, balki mahalliy aholiga ham xizmat qiladi.

4. Hududiy rivojlanish. Tibbiy turizm ko'pincha mamlakatning turizm uchun kam rivojlangan hududlarida rivojlanadi, bu hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilaydi.

5. Qo'shimcha xizmatlar sohasining rivojlanishi. Mehmonxona, restoran, transport, turistik xizmatlar kabi sohalar tibbiy turistlar ehtiyojlarini qondirish uchun rivojlanadi.

6. Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish. Tibbiy turizm raqobatni oshiradi, bu esa sog'liqni saqlash sohasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishga turtki beradi.

7. Soliq tushumlari. Tibbiy turizm sohasidan olinadigan soliqlar davlat budjetiga qo'shimcha daromad keltiradi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, umuman olganda tibbiy turizm har bir mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga ijobiy ta'sir qiladi. Bularni alohida mamlakatlarning YaIMidagi ulushi orqali ko'rishimiz mumkin. (8-rasm)

Ma mlakat	Tibbiy turizmning YaIMdagi ulushi	Izoh
Tailand	7-10 %	tibbiy xizmatlar eksporti katta, tibbiy turizm rivojlangan
Janubiy Koreya	5-8%	zamonaviy tibbiyot va texnologiyalar asosida o'smoqda
Hindiston	3-6%	arzon va sifatli tibbiy xizmatlar tufayli talab yuqori
Singapur	4-7%	yuqori sifat va innovatsion tibbiy xizmatlar
Turkiya	6-9%	turizm va tibbiy xizmatlarni birlashtirgan mamlakat
BAA	5-8%	sog'liqni saqlash infratuzilmasi rivojlangan

10-rasm. Tibbiy turizmning 2024-yilda mamlakatlar YaIMidagi ulushi²⁵

O'zbekistonda 2024-yilda turizm sohasi YaIMning 3%ini tashkil etib 2,7 mlrd AQSh dollari atrofida daromad keltirgan bo'lib aynan tibbiy turizmning YaIMdagi ulushi 0,4-0,5 % atrofida bo'lgan.²⁶


²⁵ <https://www.towardshealthcare.com/insights/medical-tourism-market-sizing> saytining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

²⁶ O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

30-Oktyabr, 2025-yil

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham yuzaga chiqdi. Jumladan, tibbiy turizmning rivojlanishi natijasida mahalliy aholi uchun tibbiy xizmatlarning narxi oshishi yoki xizmatlarga kirish qiyinlashishi mumkinligi haqida xavotirlar mavjud. Bu holat ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va sog‘liqni saqlash sohasidagi resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tibbiy turizmni rivojlantirishda davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolardan tashqari tibbiy sayyohlar turli xil risklarga ham duch kelishi mumkin. Bunday risklar bemorlarning o‘z mamlakatidan tashqarida tibbiy xizmat olish jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlar, xavf va muammolar yig‘indisidir. Ularni quyidagi diagramma orqali ko‘rib chiqish mumkin:



11-rasm. Tibbiy turizmdan kelib chiqadigan risklar²⁷

Til va aloqa to‘siqlari tibbiy sayyohlarning taxminan 20-30%iga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni keyingi muolajalar ko‘rsatmalarini tushunishlarida ko‘rinadi.

Davolanishdan keyingi tibbiy asoratlar taxminan 3-5% hollarda yuzaga keladi va bu keyingi parvarishning muhimligini ta’kidlaydi.

Huquqiy va axloqiy tashvishlar tibbiy turizmda 15% hollarda uchraydi.

Madaniy tushunmovchiliklar tibbiy turizm tajribasining taxminan 10-15%ida bemorlarning noroziligiga olib keladi.

Kechiktirilgan yoki noto‘g‘ri parvarishlash: tibbiy sayyohlarning taxminan 25%i tomonidan qayd etiladi, bu esa asoratlarga olib keladi.

Infeksiyalanish darajasi chet elda operatsiyalardan keyin turli xil gigiyena standartlari tufayli 20% gacha yuqori bo‘lishi mumkin.

Tibbiy sayohat paytida noxush hodisalarni boshdan kechirgan bemorlarda o‘lim darajasi taxminan 0,5-1,0% ni tashkil qiladi.

Tibbiy sayyohlarning taxminan 25-35%i noto‘g‘ri ishlash holatlarida yuridik yordam olishda qiyinchiliklarga duch keladi.

²⁷ <https://www.news-medical.net/health/Medical-Tourism-Risks.aspx> saytining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tibbiy turizmda yuzaga keladigan bu xavflar bemorning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, davolash samaradorligini kamaytirishi yoki qo‘shimcha xarajatlar va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun har bir mamlakat o‘z hududida bu kabi risklarni minimallashtirish yoki umuman bartaraf etish uchun mahalliy milliy davlat dasturlarini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘ygan.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, tibbiy turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mamlakatning xalqaro miqyosdagi obro‘cini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiy turizmni samarali rivojlantirish uchun sifat standartlarini oshirish, xizmatlarning raqobatbardoshligini ta’minlash va marketing strategiyalarini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, tibbiy turizm sohasida raqobat kuchaygani sayin mamlakatlar o‘zining noyob tibbiy xizmatlarini taklif etishga intiladi. Bu esa innovatsiyalarni rag‘batlantiradi va sog‘liqni saqlash sohasida yangi texnologiyalarni joriy etishga turtki beradi. Biroq bu jarayonlar ham o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi: jumladan, malakali kadrlar yetishmasligi yoki infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi muammolar.

Shu sababli tibbiy turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini baholashda uning ijobiy va salbiy tomonlarini muvozanatli ko‘rib chiqish zarur. Kelajakda ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, davlat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek, xalqaro tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Natijalarning qisqacha ifodasi. Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi bosqichda tibbiy turizmning rivojlanishi globallashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Chegaralarning ochilishi, yagona iqtisodiy makonlar, odamlarning sog‘ bo‘lishga intilishi, hayot sifati va davomiyligini yaxshilash tibbiyotning jadal rivojlanishiga va tibbiy turizmning jahon bozorini shakllantirishga turtki beradi. O‘zbekistonda ushbu sohani muvaffaqiyatli rivojlantirish, yangi bozorlarga chiqish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, yurtimizda tibbiy turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlar bo‘lishi muhim hisoblanadi:

1. Tibbiyot xodimlari – shifokor, hamshira hamda sohaning boshqa xodimlarining bilim va malakasi xalqaro standartlarga mos bo‘lishi;
2. Mamlakat o‘zining tibbiy xizmatlari sifati bilan jahon miqyosida raqobatlasha olishi;
3. Chet ellik bemorlar shaxsiy ma’lumotlarining maxfiyligi va daxlsizligining kafolatlanishi;
4. Mamlakatda xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan shifoxona va sanatoriylarning mavjud bo‘lishi;
5. Xorijiy mamlakatlarda internet vositalari orqali tibbiy sayyohlarni jalb etish uchun reklama kampaniyalarini tashkillashtirish.

Yuqorida keltirilgan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, klinika va sanatoriylarni xalqaro JCI standarti talablariga moslashtirish, Respublikamizning tibbiy turizm salohiyatini boshqa jahon miqyosida tanitish va ommalashtirish maqsadida qo‘shni davlatlarning turoperatorlari va ommaviy axborot vositalarining

vakolatli shaxslari bilan birgalika uchrashuvlar va infoturlar tashkillashtirish zarur. Shuningdek, ularni yurtimizdagi tibbiyot muassasalari faoliyati, ular tomonidan ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar bilan tanishtirish, qo‘shni mamlakatlarda o‘tkaziladigan xalqaro ko‘rgazmalar va tadbirlarda tibbiy turizm salohiyatini targ‘ib etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tibbiyot institutlari va klinikalari bilan hamkorlikda tibbiyot muassasalari, laboratoriya va davolash tashkilotlari hamda o‘z ichiga tibbiy jihozlar ishlab chiqarishni olgan tibbiy klasterlarni tashkil etish taklif etiladi.

Taklif va tavsiyalar. Olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi tavsiyalarni amalga joriy qilish yurtimizda tibbiy turizm sohasini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin:

Birinchidan, xorijlik mehmonlar bilan muloqot qilish masalalariga ko‘proq e‘tibor qaratish lozim. Chunki Euromonitor International²⁸ tadqiqot markazining ma‘lumotlariga ko‘ra, “tibbiy” turistlar noroziligining asosiy sababi til to‘sig‘idir. Tibbiyot muassasalari xodimlarining chet tillarini bilish darajasini oshirish, potensial mijozlar tilida veb-saytlar yaratish zarur.

Ikkinchidan, xalqaro miqyosdagi tadbirlarni ko‘proq tashkil etish, milliy tibbiyot markazlarini va shifokorlarning imkoniyatlarini, zamonaviy jihozlarni ko‘rsatish, bu borada faol ish olib boruvchi va ommalashtirishga xizmat qiladigan yirik xalqaro hamkorlarni jalb etish. Ta‘kidlash joizki, hozirgi vaqtda xorijlik tibbiy turistlarning O‘zbekistonda ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar, mavjud klinikalar va ulardagi mutaxassislar haqida xabardorlik darajasi past.

Uchinchidan, kiruvchi tibbiy turizmni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin bo‘lgan tibbiy xizmatlarni sug‘urtalash tizimini joriy qilish.

To‘rtinchidan, milliy tibbiy turizm bozorining holatini (sayyohlarning kirib chiqishi, daromadlar, xarajatlar) xolis baholash imkonini beradigan statistik hisobotni takomillashtirish.

Beshinchidan, tashkilotlarning zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar xarid qilish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va yangi obyektlar qurishga yo‘naltirgan foydasini soliqdan ozod qilish orqali sog‘lomlashtirish fondini soliq imtiyozlari orqali yangilash.

Oltinchidan, tibbiy turizm bo‘yicha maxsus veb-sayt yaratish. Unda xizmatlar turlari, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar, narxlar, davolanish, sog‘lomlashtirish tadbirlari, hamrohlik qiluvchi shaxslarning turar joyi va ovqatlanishi, viza olish uchun hujjatlarni tayyorlash, sug‘urta qilish imkoniyati va boshqa ma‘lumotlar taqdim etiladi. Shuningdek, sayt bir nechta xalqaro tillarda (rus, ingliz, arab, xitoy, ispan, fransuz) yuritilishi kerak.

Respublikamizda hozirgi kunda tibbiy turizm sohasida mavjud bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etish va taklif etilayotgan tavsiyalarni hayotga tatbiq etish barqaror va raqobatbardosh tibbiy turizm industriyasini yaratadi. Bu esa nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga, balki uning fuqarolariga ham foyda keltiradi.

²⁸ Industry insights and data analytics // <https://www.euromonitor.com/industry/travel>

Kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar. Tibbiy turizm O‘zbekiston uchun turizm faoliyatining nisbatan yangi yo‘nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatda ushbu soha bir vaqtning o‘zida ikkita – “turizm” va “tibbiyot” yo‘nalishlarini birlashtirgan bo‘lib, amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hali to‘liq aks ettirmagan.

Kiruvchi tibbiy turizmning rivojlanish tendensiyalarini baholash shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida tibbiy turizmni rivojlantirishning tegishli infratuzilmasi va marketingi tomonidan taqdim etilayotgan tibbiy xizmatlar sifatiga yanada ko‘proq e‘tibor qaratish zarur. Mamlakatimizda tibbiy turizm sohasi endigina maqsadli yo‘nalish va davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Shuningdek, Respublikada hali tibbiy sug‘urta tizimi mavjud emas. Lekin bunga qaramasdan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning yuqori sifati va hamyonbop narxlar O‘zbekistonga xorijiy fuqarolarni jalb qilgan va bundan keyin ham jalb qiladi, shuning uchun tibbiy turizm katta istiqbolga ega. Darhaqiqat, tibbiy turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki, mamlakat imiji uchun ham qo‘shimcha daromad manbayi bo‘lib hisoblanadi.

Tibbiy turizmini rivojlantirishga mo‘ljallangan quyidagi strategik chora-tadbirlarni qat’iy belgilab olish yuqori samara beradi:

- xorij tajribasini tadbiq qilishda tibbiyot turizmiga ixtisoslashgan turoperatorlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- tibbiy turizmning infratuzilma obyektlari faoliyatini rivojlantirishda innovatsion marketing imkoniyatlaridan foydalanish;
- qo‘shni davlatlar davolanuvchilari uchun O‘zbekistonda bo‘lish muddatlariga oid cheklovlarni bekor qilish;
- tibbiy turizm maqsadida kirib keluvchilar uchun “VisaFree” rejimini joriy qilish;
- vakolatli davlat organi tomonidan tibbiy turizm bo‘yicha ixtisoslashgan xalqaro ko‘rgazmalar tashkillashtirish;
- Prezidentimiz raisligida tibbiy turizm rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi Kengash faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Shuningdek, raqobatdosh turlar katalogini taklif qilish, turlar uchun optimal narx siyosatini yuritish, tashqi sotuv bozorlarida turistik agentliklar tarmog‘ini yaratish, tibbiyot turizmi salohiyatini tanlangan bozor segmentlarida faol targ‘ib qilish, servis uskunalarini modernizatsiya qilish, ma‘muriy bo‘linmalarda servis personalining etiket me‘yorlariga amal qilishini nazoratga olish, brendlar targ‘ibotida raqamli marketingni faol qo‘llash yo‘llarini tibbiyot turizmini rivojlantirishning marketing aspektlari sifatida sanab o‘tish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy turizmni rivojlantirishdan aniq iqtisodiy samara kutiladi. Ya‘ni milliy turizm mahsuloti diversifikatsiyasi jadal amalga oshadi, rentabellik hisob-kitobiga ko‘ra kiruvchi turistik oqimning tuzilmaviy tarkibi o‘zgaradi, milliy turizm salohiyatining ichki va tashqi bozorlardagi targ‘ibotida maqsadli yondashuv qaror topadi, tibbiy turizmning iqtisodiyotning yondosh

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

tarmoqlariga multiplikativ ta’sir effekti oshadi, O‘zbekiston hududlari rivojlanishidagi nomutanosibliklar bartaraf etiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, tibbiy turizm yo‘nalishida kiruvchi turistik oqimni rag‘batlantirish vositalarini takomillashtirish masalasiga doir ilmiy-metodologik bazaning chuqur tadqiq qilinishi obyektiv zaruratga aylangan. Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyo uchun ham turizm, ham tibbiyot sohasining yangi qirralarini ochishda turtki bo‘ladi. Albatta, turizmning har bir tarmog‘i vatanimizning ravnaq topishi, yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin egallashida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda tibbiy turizmning rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotini va nufuzini katta o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida davolash-sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

². O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2018 yildagi PF-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

³. Global Medical Tourism Market Key Statistics // <https://media.market.us/medical-tourism-statistics/>

⁴. Medical Tourism Association, Patients Beyond Borders, McKinsey & Company, International Medical Travel Journal, World Health Organization, Medical Tourism Magazine)

⁵. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi. // <https://www.stat.uz/uz/>

⁶. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi. // <https://www.stat.uz/uz/>

⁷. Гольшева Е.В., Мамметова Б.И. Медицинский туризм: главные тенденции и перспективы роста. Special issue of international scientific journal science and innovation. November 2024 | issn: 2181-3337 | scientists.uz

⁸. Patients Beyond Borders, Deloitte, McKinsey & Company, Journal of Travel Medicine, Global Wellness Institute, Medical Tourism Association, Medical Tourism Magazine, International Journal of Environmental Research and Public Health, Deloitte

⁹. O‘zbekistonda tibbiyot turizmini rivojlantirishga start berildi // <https://review.uz/uz/post/v-uzbekistane-dan-start-razvitiyu-meditinskogo-turizma>

¹⁰. Global Healthcare Accreditation for Medical Travel // <https://www.globalhealthcareaccreditation.com/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

¹¹. Talipova M.X. O‘zbekiston tibbiy turizmini innovatsion rivojlantirish istiqbollari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 8, Issue 05, May (2025)

¹². Samandarov O.A. Turizm bozorida tibbiy turizmning tutgan o‘rni va O‘zbekistonda sohani rivojlantirish uchun xorij tajribalarini qo‘llash. <https://doi.org/10.5281/Zenodo.7029211>

¹³. <https://www.towardshealthcare.com/insights/medical-tourism-market-sizing> saytining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

14. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

^{15.} <https://www.news-medical.net/health/Medical-Tourism-Risks.aspx> saytining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Industry insights and data analytics // <https://www.euromonitor.com/industry/travel>